



SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference

On Legal Science



No.1 (2)

2024

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> ELEKTRON TIJORATDA SOTUVCHI MANFAATLARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH	4-10
<i>Olimjonova Hulkar To'lqin qizi</i> SUG'URTA KOMPANIYALARI FOND BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTOR SIFATIDA	11-15
<i>Razzaqova E'zoza Yusup qizi</i> ISLOM MOLIYASIDA MUSHOKARA SHERIKCHILIK BITIMINING TUTGAN O'RNI	16-22
<i>Xudayqulova Nodira Qo'ldoshjonovna</i> HISSADORLIKKA ASOSLANGAN KRAUDFANDING FAOLIYATIDA INVESTOR HUQUQLARI HIMOYASI VA QIMMATLI QOG'OZLAR AYLANISHIDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR	23-28
<i>Salimov Islombek Bobir o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT: SOHAGA OID MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR	29-34
<i>Odilov Nozimjon Jumanazar o'g'li</i> UCHINCHI TOMON PROVAYDERLARINING MIJOZ MOLIYAVIY MA'LUMOTLARIGA KIRISHINING HUQUQIY ASOSLARI	35-39
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> MUSHARAKA VA MUDARABAH INTEGRATSIYASI: O'ZBEKISTONNING UMUMIY SHERIKLIK KELISHUVI DOIRASIDA ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI	40-46
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR TOMONIDAN SOLIQ MILLIY BAZASI YEMIRLISHINING OLDINI OLIH USULLARI	47-50
<i>Shaimardanova Dilafruz</i> ETHICAL ASPECTS OF DIGITAL ESTATE MANAGEMENT: CONFIDENTIALITY, RESPECT FOR WILL, AND NORMS OF INHERITANCE LAW	51-58
<i>Xonzodabegim Raxmatova Utkir qizi</i> KIBER HUQUQ UCHUN YURISDIKSIYANI VA XALQARO HAMKORLIKNI TARTIBGA SOLINISHI	59-73
<i>Sabohat Abdullayeva</i> BLOKCHEYN ASOSIDAGI RAQAMLI SUD EKSPERTIZASI VOSITALARI	74-84

Asal Juraeva

CHOICE OF SUBSTANTIVE AND PROCEDURAL LAW IN INTERNATIONAL
COMMERCIAL ARBITRATION85-91

Xudoyberdiyev Nuriddin Olloberdi o'g'li

KIBERHUQUQDA YURIDIKSIYA MASALALARI – ONLAYN MUHITDA QAYSI
DAVLAT QONUNCHILIGI QO'LLANILADI? 92-103

Rabbimov Shohruh

RAQAMLI ASRDA FUQAROLIK ERKINLIKLARI VA ULARNI
MUVOZANATLASH 104-112

Abbosjon Olimov

KIBER JINOYATLARNI TERGOV QILISH BILAN BOG'LIQ XALQARO ISO
STANDARTLAR VA ULARNI OZBEKISTON QONUNCHILIGIGA
INTEGRATSIYALASH 112-125

Mirzakarimova Dilafruz

KIBERXAVFSIZLIK VA YURISDIKSIYA CHEGARALARINI BELGILASH
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 126-134

Normurodova Behro'za Xolmo'minovna

RAQAMLI OCHIQ MANBALAR ORQALI DALILLAR TO'PLASH VA TERGOV
QILISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH..... 135-143

Gulomov Shokhrukh Islomjon ugli

REGULATORY FRAMEWORKS FOR METAVERSE PLATFORMS: CHALLENGES
AND OPPORTUNITIES..... 144-151

O'razbayev Laziz Shuhrat o'g'li

MAMLAKATIMIZDA RAQAMLI INFRATUZILMALARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN
OLIB BORILAYOTGAN CHORA-TADBIRLARNING AHAMIYATI 152-158

Olimjonova Hulkar To'lqin qizi

MOLIYAVIY VOSITACHILAR ORASIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING
TUTGAN O'RNI 159-162

MAMLAKATIMIZDA RAQAMLI INFRATUZILMALARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIB BORILAYOTGAN CHORA- TADBIRLARNING AHAMIYATI

O'razbayev Laziz Shuhrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ulaziz@civil.uz

Annotatsiya. Muhim raqamli infratuzilmalarning hayotimizda tutgan o'rni, mamlakatimiz miqyosida raqamli infratuzilmalarni himoya qilish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlarni, shuningdek, raqamli infratuzilmalar bilan bog'liq qonun hujjatlaridagi ularni himoya qilish mezonlarini hamda mamlakatimizda raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish uchun olib borilayotgan harakatlar va ularning rivojlanishidagi o'sishlarni ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: : raqamli infratuzilma, mobil tayanch stansiyalar, optik tolali aloqa liniyalari, Global innovatsion indeks reytingi..

Kirish. Raqamli asrda raqamli infratuzilma tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. U zamonaviy tashkilotlar, hukumatlar va umuman jamiyatlarning faoliyatiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada biz raqamli infratuzilma nima ekanligini, nima uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, uning keng qamrovli ta'siri va u yuqori xizmatlar va o'lchanadigan natijalarni yaratishga qanday hissa qo'shishini ko'rib chiqamiz.

Ko'pincha adabiyotlarda raqamli ramka deb ataladigan raqamli infratuzilma hozirgi kunda raqamli dunyoning asosini ifodalaydi. U raqamli xizmatlar, ilovalar va jarayonlarning uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan asosiy texnologik arxitektura, tizimlar va komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: apparat, dasturiy ta'minot, tarmoqlar, ma'lumotlarni saqlash, kiberxavfsizlik, bulutli hisoblash va boshqalarni. Yuqorilardan kelib chiqib raqamli infratuzilma raqamlashib borayotgan hayotimizning asosini tashkil qiladi deb aytishimiz maqsadga

muvoqifdir, chunki raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli axborot bularning hammasi raqamli infratuzilma natijasida faoliyat yuritadi. Raqamli infratuzilmalarning eng sodda va butun dunyo uchun muhimi hisoblangan internetni oladigan bo'lsak, Yer yuzidagi 5,3 milliarddan ortiq odam hozirgi kunda o'zaro bog'liqlik va aloqa uchun internetdan foydalanayotganmoqda, shu sababli, korxonalar va kompaniyalar raqobatbardosh va ishonchli bo'lish uchun raqamli infratuzilmasini yangilashga majbur bo'lmoqda, chunki Raqamli infratuzilma aloqa tarmoqlaridan tortib ma'lumotlarni saqlash obyektlarigacha bo'lgan bugungi korxonaning tamal toshi hisoblanadi, ammo texnologiyaga haddan tashqari ishonish raqamli infratuzilma uskunalari himoya qilish siyosatiga olib kelgan komputerni buzish kabi zamonaviy tahdidlarni vujudga keltirmoqda, ya'ni qanchalik shaxslar (jismoniy va yuridik)ning raqamli infratuzilmalardan foydalanishi ortgani sari ularga bo'lgan tahdidlar ham kuchaymoqda. Bu esa, albatta, ularni himoya qilish choralarini ishlab chiqishimiz sabab bo'ladi, nafaqat bitta mamlakat miqyosida, balki mintaqaviy tarzda yoki dunyo miqyosida ularni himoya qilish zarurligi kundan kunga o'z isbotini topib bormoqda.

Albatta, raqamli infratuzilmalarni himoya qilish choralaridan avval ularni rivojlantirish jarayonlari olib boriladi. Biz quyida mamlakatimizda raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish uchun olib borilgan va olib borilayotgan tadbirlar haqida so'z yuritamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonida raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Unga ko'ra raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O'zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;

taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchligini ta'minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish;

mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyasi bo'yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog'i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;

barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish;

avtomagistral va temir yo'llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash;

Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;

geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

iste'molchilarga televizion signalni uzatish, yer usti televizion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish;

"bulutli" hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash;

bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini

idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish;

mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;

davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalarini keng joriy etish;

shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun "aqlli" va "xavfsiz" shahar loyihalarini izchil amalga oshirish;

keng polosali ulanishni rivojlantirishning texnologik asosi iste'molchilarga asosiy va qo'shimcha xizmatlarni, shu jumladan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo'llab-quvvatlashda aqlli tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida individual infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni ta'minlash uchun yagona infratuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish;

mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;

aloqa operatorlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Yuqorida Prezident Farmonida raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish uchun belgilabgan berilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda nafaqat raqamli infratuzilmalarning rivojlanishi, balki u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, axborot almashish tezligi hamda uning xavsizligi kabi bir qator sohalarning ham yanada rivojlanishiga imkon berdi. Birgina raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish orqali

deyarli barcha sohalarda, masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, ichki ishlar, iqtisodiyot, yo'llar, energetika, transport va boshqa sohalarda tubdan rivojlantirish ishlarini amalga oshirish mumkin ekanligi jahon tajribasida o'z tasdig'ini topganligi mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish uchun e'tibor qaratishimiz zarurligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi farmonda 2022-yil yakuniga qadar har bir aholi punkti 10 Mbit/sdan kam bo'lmagan ma'lumotlarni uzatish tezligidagi Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati bilan ta'minlanishi hamda 2022-yil 1-yanvarga qadar barcha mashhur sayyohlik joylari yuqori tezlikdagi Internet bilan ta'minlanishi zarurligi belgilangan edi. Quyida O'zbekiston Respublikasining 2017-2022-yillarda raqamli infratuzilmasida yuz bergan o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz.

Xalqaro ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga (internet) ulanish tezligi 2017-yilda 64,2 Gbit/s; 2022-yilda 1800 Gbit/s – 28 barobar oshdi;

Provayderlar uchun internet tariflari narxi 2017-yil 91,5 \$; 2022-yil 3\$ - 30 barobar arzonlashdi;

Optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi – 2017-yil 24,5 ming km; 2022-yil 170 ming km – 7 barobar ortdi;

Mobil tayanch stansiyalari soni – 2017-yil 20 ming dona; 2022-yil 54,2 ming dona – qariyb 3 barobar ko'paydi;

Internetdan foydalanish imkoni – 2017-yil 34,5 %; 2022-yil 75 % - 2,2 barobar ko'paydi;

Uyali aloqa tarmog'i abonentlari ulushi – 2017-yil 69,5 %; 2022-yil 86 % - 1,2 barobar oshdi.

Demak, yuqoridagi sonlardan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda mamlakatimizda raqamli infratuzilmalarini rivojlantirishda olib borilgan harakatlar o'zining amaliy natijasini ko'rsatgan.

Yuqoridagi Preziden Farmonidan tashqari mamlakatimizda 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish, bu boradagi eksport hajmini 500 million dollarga yetkazish asosiy maqsadlardan biri ekanligi qayd etilgan. Bu maqsadning belgilanishi, albatta, mamlakatimizda raqamli infratuzilmalarning

yanada rivojlanishiga, internet tezligining ortishiga, raqamli iqtisodiyotimizning ham yanada gullab-yashnashiga yordam beradi.

Statistik ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, unga ko'ra, mamlakatimizda oxirgi 7 yilda raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun 1,3 milliard AQSH dollari jalb etilib, shundan 54 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari ulushiga to'g'ri kelgan. Mamlakatimiz tomonidan erishilgan yutuqlarni xalqaro hamjamiyat e'tirof etdi. Jumladan, oxirgi ikki yilda Global innovatsion indeks reytingida AKT xizmatlari eksporti ko'rsatkichi bo'yicha 42 pog'onaga oshdi (129-o'rindan 87-o'ringa ko'tarildi). 7 yil ichida mobil internet narxi reytingida 68 o'rindan 15 o'ringa ko'tarildi.

Reytingning 2023-yilgi hisobotida O'zbekiston "Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar" (innovation input) subindeksida 72-o'rinni, "Innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar" (innovation output) subindeksida o'tgan yilga nisbatan 3 pog'onaga o'sib, 88-o'rinni egalladi. Shuningdek, mamlakatimiz reytingda "Boshqaruv institutlar sifati" (+8), "Infratuzilma" (+1), "Bilim va texnologiya mahsullari" (+2), "Ijodiy mahsulotlar" (+9) yo'nalishlarida o'z o'rnini o'tgan yilga nisbatan yaxshiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish uchun olib borilgan va olib borilayotgan harakatlar raqamli infratuzilmani jadal rivojlantirish, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi "raqamli tafovut"ni bartaraf etish hamda taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunday bo'lsada, bu sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir qancha ishlar ham mavjud, ya'ni optik tolali, radiorelekt aloqa liniyalarini hamda ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini qurish, raqamli infratuzilmalarni himoya qilish choralari kuchaytirish, raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb qilish va boshqalar.

REFERENCE:

1. Global Innovation Index 2023 Innovation in the face of uncertainty. World Intellectual Property Organization 34, chemin des Colombettes, P.O. Box 18 CH-1211 Geneva 20, Switzerland.
2. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.
3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aktga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish. N.A.Olimboyeva Toshkent Moliya instituti magistri. International scientific-online conference: intellectual education technological solutions and innovative digital tools.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni.
5. Raqamli infratuzilma — iqtisodiy o‘shish garovi. Bekmirza ESHMIRZAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati. 26.10.2023
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. Топилдиев, Б. Р. (2019). ОСОБЕННОСТИ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПЕРЕДАЧИ ПРЕДПРИЯТИЯ В ДОВЕРИТЕЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ. ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ, 29-33.
8. Topildiyev, B. R. (2022). MOL-MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 998-1008.
9. Топилдиев, Б. Р. (2017). Основные условия договора доверительного управления имуществом. Юрист, (9), 15-19.